

**ICHAK INFEKSIYALARINING ALLERGIK MEZONI,
EPIDEMIOLOGIYASI**

Jumayeva H.X., Rayimqulov R.G'.

hiloladjumayeva2992@gmail.com

ravshanjonrayimqulov@gmail.com

Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi,

Umumkasbiy fanlar kafedrasi mudiri,

Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi,

Umumkasbiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

✓ **Annotatsiya**

Ushbu ilmiy ishda o'tkir va surunkali yuqumli ichak kasalliklari, etiologiyasi dizenteriya bo'lmagan ichak kasalliklarida teri allergik sinamalarining diagnostik ahamiyati yoritilgan. Unda gastroenterokolit bilan kasallangan 130 ta bemor va 130 ta 3-59 yoshgacha bolgan sog'lom odamlar urganilib ichak kasalligi bilan kasallangan bemorlar natijalari bilan teri sinamalari natidjalari solishtirildi. Natijada 91,2-100% holatlarda ichakdan ajralgan mikroorganizmlar bilan ichak, protey tayoqchasi, gemolitik stafilokokk, streptokokk, enterokokk antigenlariga musbat reaksiya bergan mikroorganizmlarga mos kelgan.

Kalit so'zlar: o'tkir, surunkali, ichak kasalliklari, dizenteriya, patogenez, gastroenterokolit

Mavzuning dolzarbligi

Ko'pgina yuqumli kasalliklarning etiologiyasi va patogenezida allergik komponent muhim rol o'ynashi aniqlandi. O'tkir va surunkali ichak kasalliklari yuqumli kasalliklar orasida yetakchi o'rinni egallashda davom etmoqda. Ko'pincha o'linga olib keladigan yuqori foiz, kasallik doimiy va uzoq davom etishi, etiologiya va patogenezda ba'zi savollarining noaniqligi, shuningdek tezkor diagnostika usullarining yo'qligi - bularning barchasi ichak kasalliklari muammosini dolzarb qilib kelmoqda. Ko'pgina yuqumli kasalliklar allergiya mexanizmi bilan rivojlanadi. Shu sababli o'tkir va surunkali ichak kasalliklarining etiologiyasi va patogenezida patogen va shartli patogen ichak mikroorganizmlarining rolini o'rganish katta qiziqish uyg'otadi. Ichak kasalliklarida bakteriyalarga sezuvchanlik holatining oshishi va ichak kasalliklari patogenezida shartli patogen ichak florasiining ayrim vakillarining ahamiyati, shuningdek, etiologiyasi dizenteriya bo'lmagan ichak kasalliklarida teri allergik sinamalarining diagnostik ahamiyati to'g'risida manbalarda ma'lumot yetarlicha berilmagan.

Tadqiqot maqsadi: Bakteriya etiologiyali ichak infeksiyalari patogenezini va diagnostikasida allergiya rolini, epidemiologiyasini o'rganish.

Tekshirish materillari va usullari:

Biz o'tkir va surunkali gastroenterokolit bilan kasallangan 130 ta bemorlar va 130 ta 3-59 yoshgacha bolgan sog'lom odamlarni nazorat qildik. Ularga allergik, bakteriologik va serologik tekshiruvlar o'tkazildi. Biz allergik tekshiruvni maxsus ishlab chiqilgan karta bo'yicha anamnez yig'ishdan boshladik. Anamnez yig'andan so'ng, gemolitik stafilokokk, streptokokk, enterokokk, ichak va Proteus tayoqchalari, shuningdek dizenteriya allergenlari bilan intradermal allergik sinama (bilak terisiga allergenlar kiritildi) o'tkazildi. Nazorat qilish uchun intradermal steril fiziologik eritma va gistamin eritmasi 1:10000 konsentratsiyasida yuborildi. Teri sinamalarining natijalari 10-20 daqiqadan va 24-48 soatdan keyin hisobga olingan. Ichak aerob mikroflorasi ichaktifoid va dizenteriya guruhlarini bakteriolarini aniqlash uchun Endo, safroli Levin, Saburo, Ploskirev rivanol bilan, Myuller, 6 foiz qon, tuz, shakar va vismut-sulfit agarlari, shuningdek Shukevichga ko'ra qiyshiq agarda najas emulsiyasini ekish orqali o'rganildi. Mikroorganizmlarning sof kulturasi ajratilgandan so'ng ularning morfologik, kultural - biokimyoviy, antigenlik va boshqa xususiyatlari o'rganildi. Qon zardobidagi Escherichia, Proteus va Dizenteriya tayoqchalariga qarshi antitelalar Shigella Fleksner, Nyukasl va Sonne standart antigenlaridan foydalangan holda Vidal reaksiyasi orqali aniqlandi. Tadqiqot natijasi va muhokamasi. Ichak kasalliklari bo'lgan bemorlarda organizmning ichak mikroflorasiga sensibilizasiyaning dinamik rivojlanishini taqqoslash va kuzatish uchun biz 60 nafar sog'lom bolalar va 70 nafar kattalarni tekshirdik. Ular najasini takroriy bir necha bor tekshirganda shigella, salmonella, protozoa va parazit aniqlanmagan, Suverkalov sinamasi manfiy natija berdi. Sog'lom odamlarda teri sinamasining musbat reaksiyalari kam holatlarda past intensivlik bilan kuzatilgan. Shu bilan birga, bakteriaya allergenlariga ko'p bemorlarda yuqori sezuvchanlik bilan (+ + +, + + + +) musbat reaksiya kuzatildi. 111 bemorda etiologiyasi dezenteriya bo'lmagan, 55 ta bemorda ichak tayoqchasida, 23 ta bemorda gemolitik stafilokokk, 15 ta da enterokokk musbat reaksiya berdi. Ichak kasalliklarining surunkali shakllari bo'lgan bemorlarda organizmning ichak florasini vakillarining antigenlariga yuqori sezuvchanligi nafaqat intensivligi, balki rivojlanish chastotasi bilan ham ajralib turadi. Surunkali enterokolitda ichak tayoqchasiga qo'yilgan teri sinamasi barcha bemorlarda musbat natijani berdi. Gemolitik streptokokkga 84,2%, protey tayoqchasiga 63,1%, gemolitik stafilokokkga 52,7 %, enterokokk 31,5% musbat natija aniqlandi. Shuningdek, o'tkir ichak kasalliklarida 1 va 2 allergenlarga, surunkali shakllarda esa bir vaqtning o'zida 3, 4, 5 allergenlarga (poliallergiya) ijobiy reaksiyalar ustunlik qilishi katta qiziqish uyg'otadi. o'tkir jarayonning surunkali holatga o'tishi tufayli dastlab monoallergiya asta-sekin poliallergiya bilan almashtiriladi degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. parallel ravishda o'tkazilgan bakteriologik tekshiruvlar bemorlarda ham, sog'lom odamlarda ham ko'pincha ichak tayoqchalari, stafilokokklar, enterokokklar, protey guruhidagi

bakteriyalar, kandidalar, ko'k yiring tayoqchalari ajralishini ko'rsatdi. Biroq ichak kasalligi bilan kasallangan bemorlarda yuqorida keltirilgan mikroorganizmlar patogenlik belgilari bilan bo'lgan. Sog'lom odamlarga qaraganda bemorlarda gemolitik va enteropatogen turdagi esherixiya 3 marta, kandidalar (3,5-4 marta), gemolitik stafilokokk (4-5 marta) va gemolitik enterokokk (5-8 marta) ko'p ajratib olingan. Shu bilan birga sog'lom odamlarda mikroorganizmlar assotsiatsiyasi 2-3 turi, bemorlarda patogenlik belgilari bilan bo'lgan mikroorganizmlarning 3-4 va 5 ta turlari aniqlangan. Bizni teri sinamasi natijalari bakteriologik tekshiruv ma'lumotlari bilan qanchalik mos kelishi haqidagi savol qiziqirdi chunki bu allergik sinamalarni aniqlash uchun diagnostik qiymatga ega. Buning uchun ichak kasalligi bilan kasallangan bemorlar natijalari bilan teri sinamalari natidjalarini solishtirdik. 91,2-100% holatlarda ichakdan ajralgan mikroorganizmlar bilan ichak, protey tayoqchasi, gemolitik stafilokokk, streptokokk, enterokokk antigenlariga musbat reaksiya bergan mikroorganizmlar mos keldi. Biroq sog'lom bolalar va kattalarda ichak tayoqchasi, enterokokklar, protey tayoqchasi, stafilokokklar va streptokokklar antigenlariga teri sinamasi manfiy natija bergan (81,0% - 78,6%). Buni serologik tekshiruv natijalari, xususan Vidal reaksiyasi tasdiqlaydi. Shunday qilib, reaksiyaning birinchi bosqichida bemorlarning 53,8 %da (kasallikning 5-7 kunlarida) ichak tayoqchasiga qarshi agglutinatsiya qiluvchi antitelalar aniqlandi. Bemorlarni uyga ketishdan oldin qayta tekshiruv o'tkazilganda 83,7%, protey tayoqchalariga mos ravishda 42,3 va 70,9% antitela aniqlandi.

Xulosa

Shunday qilib, ichak kasalliklarining turli shakllari bo'lgan bemorlarni va sog'lom odamlarni kompleks bakteriologik, allergik va serologik tekshiruvlariga asoslanib o'tkir va surunkali ichak kasalliklarining rivojlanishida organizmning bakteriyaga sezuvchanligini oshishi muhim rol o'ynashini tan olish kerak. Bakteriologik, serologik va allergologik tadqiqotlar natijalarining bakterial allergenlar bilan mos kelishi teri sinamalarning o'ziga xosligini ko'rsatadi, bshuning uchun bu usulni shartli patogen ichak florasi vakillari keltirib chiqaradigan ichak kasalliklarining etiologiyasi va patogenezini aniqlashda diagnostika usullari arsenaliga kiritish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Юсупов М. И., Одилова Г. М., Жамалова Ф. А. Появление гемолитических свойств у кишечных палочек в зависимости от состава питательной среды // Экономика и социум. – 2021. – №. 3-2. – С. 602-606.
2. Boltaev K.S., Mamedov A.N. Comparative study of ecological groups of hippohae rhamnoides Phytonematoids growing in the zarafshan oasis // Galaxy international interdisciplinary research journal. – 2021. - № 9(9). P. 101-104.
3. Одилова Г., Шайкулов Х., Юсупов М. Клинико-бактериологическая характеристика стафилококковых диарей у детей грудного возраста // Журнал вестник врача. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 71-74.
4. Юсупов М. И., Одилова Г. М., Жамалова Ф. А. появление гемолитических свойств у кишечных палочек в зависимости от состава питательной среды // Экономика и

социум. – 2021. – №. 3-2. – С. 602-606

4. Pana ZD, Roilides E, Warris A, Groll AH, Zaoutis T. Epidemiology of invasive fungal disease in children. *J. Pediatric Infect Dis Soc.* (2017) 6:S3–11. doi: 10.1093/jpids/pix046

5. Mukhammadieva M.I. (2022). Modern Clinical and Biochemical Characteristics of Liver Cirrhosis Patients of Viral Etiology with Spontaneous Bacterial Peritonitis //Texas Journal of Medical Science. – 2022.- P. 86-90.

6. Oblokulov Abdurashid Rakhimovich Mukhammadieva Musharraf Ibrokhimovna Sanokulova Sitora Avazovna Khadieva Dora Isakovna. (2023).CLINICAL AND LABORATORY FEATURES OF SPONTANEOUS BACTERIAL PERITONITIS IN PATIENTS WITH VIRAL LIVER CIRRHOSIS. *Journal of Advanced Zoology*, 44(S2), 3744–3750. Retrieved from

<http://www.jazindia.com/index.php/jaz/article/view/1716>

7. Tukhtayevna, N. Z. (2023). Course of Community-Acquired Pneumonia in Children of Primary School Age. *American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences (2993-2149)*, 1(8), 374–377. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/AJPMHS/article/view/1115>

8. Ibrokhimovna, M. M. . (2024). Improvement of Primary Prophylaxis and Treatment of Spontaneous Bacterial Peritonitis Complicated in Virus Etiology Liver Cirrhosis. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 3(4), 19–25. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/jiphr/article/view/2506>

9. Tukhtaevna N. Z. The Relationship of Tuberculosis and Pneumonia in Children, Clinical Characteristics //INTERNATIONAL JOURNAL OF HEALTH SYSTEMS AND MEDICAL SCIENCES. – 2023. – T. 2. – №. 5. – С. 168-172.

10. Oblokulov Abdurashid Rakhimovich Mukhammadieva Musharraf Ibrokhimovna Sanokulova Sitora Avazovna Khadieva Dora Isakovna. (2023).

CLINICAL AND LABORATORY FEATURES OF SPONTANEOUS BACTERIAL PERITONITIS IN PATIENTS WITH VIRAL LIVER CIRRHOSIS.

Journal of Advanced Zoology, 44(S2), 3744–3750. Retrieved from

<http://www.jazindia.com/index.php/jaz/article/view/1716>

11. Mukhammadieva M.I. (2022). Modern clinical and biochemical characteristics of liver cirrhosis patients of viral etiology with spontaneous bacterial peritonitis //Texas Journal of Medical Science. – 2022.- P. 86-90

12. Abdulloev Mukhriddin Ziyodulloevich. (2023). Modern Therapy of Viral Hepatitis. *Texas Journal of Medical Science*, 26, 66–69. Retrieved from <https://www.zienjournals.com/index.php/tjms/article/view/4636>

13. Abdulloev Mukhriddin Ziyodulloevich. (2023). Modern Therapy of Viral Hepatitis. *Texas Journal of Medical Science*, 26, 66–69. Retrieved from <https://www.zienjournals.com/index.php/tjms/article/view/4636>

14. Mukhammadieva M.I. (2023). Вирус этиологияли жигар циррози беморларида спонтан бактериал перитонит билан асоратланишнинг профилактикаси ва давосини такомиллаштириш //Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. - 2023.-P.947-953.

15. Oblokulov A.R., M.I. Mukhammadieva. (2022). Clinical and biochemical characteristics of liver cirrhosis patients of viral etiology with spontaneous bacterial peritonitis //Academicia Globe: Inderscience Research. -2022.- P. 210-216.

16. Nabiyeva, Z. . (2023). CLINICAL MANIFESTATIONS OF CHRONIC DISEASES ORGАНОВ OF THE DIGESTIVE SYSTEM IN CHILDREN. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(15), 27–28. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/13239>

17. Tukhtaboevna, M. Z. . (2022). ACUTE INTESTINAL INFECTIONS IN CHILDREN, MODERN PRINCIPLES OF CORRECTION AND RESTORATION OF WATER-ELECTROLYTE BALANCE. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 101–105. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/3249>

18. Набиева, З. Т. (2023). КЛИНИКО-ИММУНОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МИКОПЛАЗМЕННОЙ ПНЕВМОНИИ У ДЕТЕЙ. *Новости образования: исследование в XXI*

веке, 2(13), 35-39.

19. Sanokulova Sitora Avazovna. (2023). Factors of Development of Hepatorenal Syndrome in Patients with Liver Cirrhosis of Viral Etiology. *Texas Journal of Medical Science*, 26, 4–9. Retrieved from <https://www.zienjournals.com/index.php/tjms/article/view/4611>

20. Авазовна, С. С. . (2023). Факторы Развития Гепаторенального Синдрома У Больных Циррозом Печени Вирусной Этиологии. *AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI*, 2(12), 1–8. Retrieved from <https://www.sciencebox.uz/index.php/amaltibbiyot/article/view/8673>

21. Giozovna, Y. G. ., Shavkatovna, N. D. ., & Tuxtaevna, N. Z. . (2023). FEATURES OF NEONATAL MALADAPTATION AND RESPIRATORY SUPPORT FOR SMALL CHILDREN FROM MOTHERS WITH PREECLAMPSIA. *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*, 3(3), 1–4. Retrieved from <https://www.inovatus.es/index.php/ejmmp/article/view/1535>

22. Jalilova, A.S. (2022). THE SPREAD OF CIRRHOSIS OF THE LIVER BY ETIOLOGICAL FACTORS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 253-257.\

29. Кароматов Иномжон Джураевич, Набиева Зумрад Тухтаевна Адаптоген - элеутерококк, свободоягодник колючий (обзор литературы) // Биология и интегративная медицина. 2017. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/adaptogen-eleuterokokk-svobodoyagodnik-kolyuchiy-obzor-literatury> (дата обращения: 19.12.2023).

23. Облокулов, А., & Муҳаммадиева, М. (2022). КЛИНИКО-ЛАБОРАТОРНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СПОНТАННОГО БАКТЕРИАЛЬНОГО ПЕРИТОНИТА ПРИ ЦИРРОЗЕ ПЕЧЕНИ ВИРУСНОЙ ЭТИОЛОГИИ. *Журнал вестник врача*, 1(3), 66–69. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/doctors_herald/article/view/2016

24. То'htayevna, N. Z. (2023). BOLALAR VA O'SMIRLARDA REYTER SINDROMI. *Journal of new century innovations*, 23(2), 3-6.

25. Aslonova.M.R. (2022). Determination of suicidality against the background of Parasitic Diseases in children // *INTERNATIONAL JOURNAL OF PHILOSOPHICAL STUDIES AND SOCIAL SCIENCES*. – 2022.- P. 9-12.

26. Jalilova, A. S. (2022). Approaches to Etiotropic Therapy of Covid-19 in Outpatient Patients. *INTERNATIONAL JOURNAL OF HEALTH SYSTEMS AND MEDICAL SCIENCES*, 1(1), 41-44.

27. Mukhtarova Sh.A. (2022) Age-related features of clinical manifestations of giardiasis // *International journal of medical sciences and clinical research* 2022;17-21.